

Ona tili va Adabiyot. DTM 2019. 31.07.2019

1. **Oliy Majlis yig'inlari va anjumanlar tili** qaysi uslubda olib boriladi?  
A) publitsistik B) rasmiy va publissitik C) rasmiy D) ilmiy
2. Qaysi gapda ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nosi metafora usulida ko'chgan?  
A) Bu o'yinda "Bunyodkor" g'alaba qozondi  
B) Och nazarim tushar suratga.. Surat, surat! Nega sen tilsiz?  
C) Temur tig'i yetmagan joyini, Qalam bilan oldi Alisher  
D) Oyog'ini yechib ichkariga kirdi
3. Qaysi gapda sifat turkumiga oid so'zlar aniqlovchi hamda hol vazifasida kelgan?  
A) O'ziyama juda g'alati odam, sergapmi, kamgapmi, bilib bo'lmaydi  
B) Daraxtlarning sariq barglari ko'zga shunday jozibali ko'rinadiki, bahri diling ochiladi  
C) Chodir eshigiga osilgan kimxob parda Humoyunning qo'liga mayin va salqin tegdi  
D) Oyning kumushsimon tumanli nuriga cho'mgan osmonda yulduzlar siyrak edi
4. O'zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari // davlat bayrog'i, davlat gerbi va davlat madhiyasi milliy iftixorimiz, sharaf-shonimiz sanaladi.  
Ushbu gapda // belgisi o'rnida qanday tinish belgisi ishlatilishi kerak?  
A) ikki nuqta B) tire C) vergul D) nuqtali vergul
5. **O'tganlarni esladim va shundan g'oyat afsuslandimki, insonning irodasi eskirmas ekan-u, o'zi charchab qolar ekan.**  
Ushbu gapda qatnashgan yasama so'zlar haqida berilgan noto'g'ri fikrni toping. A) yasama so'zlar bir xil gap bo'lagi vazifasini bajargan B) barcha yasama so'zlar tuzilishiga ko'ra o'zaro bir turga mansub C) yasama so'zlarning ikkinchi darajali bo'laklar vazifasini bajarishi kuzatilmaydi D) barcha yasama so'zlarning yasalish asosi o'zaro bir xil so'z turkumiga mansub
6. Qaysi javobdagi fe'llar gapning ikki xil bo'lagi vazifasini bajargan?  
A) Chol aytibdi: "Qayg'urmang, bu kunlar ham o'tadi ..."  
B) Sen ko'rmayapsan, yulduzlar birin-кетин so'nib boryapti.  
C) Biror yulduz uchsa, derlar: «Kimdir o'tdi bu olamdan...».  
D) Bahor keldi, endi ortiq qish emas, Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun
7. **Har qanday ismning berilishi ota-onaning biror maqsadi, shirin orzulari, farzandining sog'lig'ini, istiqbolini ko'zlagan ezgu niyatlaridan kelib chiqadi.**  
Ushbu gapdagi boshqaruv munosabatli so'z birikmalari sonini aniqlang.  
A) 5 B) 3 C) 6 D) 4
8. Faqat tub so'zlardan tashkil topgan egasi noma'lum gapni aniqlang.  
A) Kadrlarni o'z o'rniga qo'yish ishiga hanuz kirishilmadi  
B) Har qanday so'zni o'ylab gapirish kerak  
C) Bilmagani ishga urinib tuzoqqa ilinma  
D) Hozircha shu shaharchada yashashga to'g'ri keladi
9. "Alpomish" dostonida Surxayl kampirning yetti o'g'li bor edi, ularni katta- kichikligi jihatidan tartiblang.  
**1) Boyqashqa 2) Toyqashqa 3) Ko'kaldosh 4) Ko'kaman 5) Ko'kqashqa 6) Qo'shquloq 7) Qorajon**  
A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 B) 3, 4, 5, 1, 2, 6, 7  
C) 7, 6, 5, 3, 4, 1, 2 D) 3, 4, 5, 2, 1, 6, 7
10. Undoshlarning hosil bo'lish o'rniga ko'ra barcha turlari qatnashgan so'z ot kesim vazifasida kelgan gap berilgan qatorni aniqlang  
A) Ishingni qamchila, toki ish seni qamchilay boshlamasin  
B) Yerga enggashganning qomati oliftaning bo'yidan balandroq  
C) Bahona izlaydigan ustaning usta ekani shubhali  
D) Nafsing bilan maslahat qilshdan avval hamyoning bilan kengash
11. Qaysi gaplar murakkab qo'shma gap hisoblanmaydi?  
1. Shuni unutmangki, xushmuomalalik inson bezagidir va u sizni odamlar bilan yaqinlashtiradi.  
2. Sen uchundir bor hayotim, shuhratim, shonim, Qo'llaringni bergil menga, shirinzabonim.  
3. Ikki o'g'il yana chol Qoshiga qaytishibdi Va bor gapni oqizmay, Tomizmay aytishibdi.
12. Qaysi qatorda yasama ravish qatnashgan?  
A) oylab, charaqlab B) ifodalab, erkalab  
C) yillab, botmonlab D) haftalab, minglab
13. Berilgan so'zlardan nechtasi modal so'z hisoblanadi?  
**Xayriyat, xolos, xullas, avval, birdan, afsuski, haqiqatan, barakalla**  
A) To'rttasi B) oltitasi C) uchtasi D) beshtasi
14. **Biz buyuk Vatanning baxtiyor farzandlarimiz.**  
Ushbu gap haqida berilgan to'g'ri ma'lumotni aniqlang.  
A) Qarashlilik ma'nosini ifodalagan egalik qo'shimchasi ishtirok etmagan.  
B) Kesimlik ma'nosini ifodalovchi maxsus shakl (munosabat shakli) qatnashmagan.  
C) Gapdagi barcha munosabat shakllari shakldoshlik xususiyatiga ega.  
D) Kesim tarkibida 2 ta munosabat shakli qatnashgan
15. Berilgan gaplarning qaysi biri havola bo'lakli qo'shma gap sanaladi?  
1. Shunday odamlar borki, odamlarning naqshidir.  
2. To'leim shuki, Vatanda bir guliston tanladim  
3. Kimning himmati baland bo'lsa, uning qadr-qimmatini ham baland bo'ladi  
4. Har kimki hayotga xo'mrayib boqsa, hayot ham unga zarfa bilan boqadi  
A) 1, 2, 3 B) 1, 2, 3, 4 C) 1, 2 D) 3, 4
16. **Odanning har qanday sharoitdagi kuchli quroli uning aql-u zakovatidir.**  
Ushbu gapda kesim necha marta boshqa bo'laklarga nisbatan bevosita hokim bo'lak vazifasini bajargan?  
A) 2 B) 4 C) 1 D) 3
17. **Maqola chiqdi.**  
Ushbu gapning kesimi ortirma nisbatdagi fe'lga aylantirilganda qanday grammatik o'zgarish sodir bo'lmaydi?  
A) Ushbu gap egasi yashiringan gapga aylanadi  
B) ushbu gapning egasi to'ldiruvchiga aylanadi  
C) fe'ldagi ifodalangan zamon ma'nosi o'zgaradi  
D) o'timli - o'timsizlik ma'nosi o'zgaradi
18. **Vohada islohatlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni mustahkamlash yuzasidan amalga oshiralayotgan keng ko'lamli tadbirlar o'z samarasini bermoqda.**  
Ushbu gapda jarangli va jarangsiz til undoshlaridan iborat sodda yasama so'zlar soni nechta?  
A) 2 B) 3 C) 4 D) 1
19. Yasalish asosi yasama so'z bo'lgan faoliyat-jarayon otini aniqlang.  
A) ezmalik B) ustachilik C) terimchi D) ko'rik
20. Qaysi so'zlarning ikkinchi bo'g'inida u yoziladi?  
**1) Kul...shmoq 2) yug...rmoq 3) bur...lmoq 4) ulg...rmoq**  
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3, 4 C) 2, 4 D) 1, 2, 3
21. "Sohibqiron" dramasi kimning otasi Amir Temurga sarboz bo'lib, Delhi jangida shahid ketgan edi?  
A) yasovul Qosimbekning B) Barlos Bahodirning  
C) Aloviddin D) Buqalamunning
22. **"Tug'ilgansan ozod, mudom Ozod bo'lib qol"**  
Ushbu misralar quyidagi qaysi asarga epigraf qilib olingan?  
A) "Sohibqiron" B) "Yovvoyi yo'rg'a"  
C) "Nur va Soyalar" D) "Ruhlar isyoni"
23. **"Ilgimdan kelgan zulum tig'in ushotib (sindirib) mazlum jarohatig'a intiqom malhamini (qasos malhamini) qo'ydim"**  
Ushbu satrlar Alisher Navoiyning qaysi asaridan olingan?  
A) "Munshaot B) "Vaqfiya"  
C) "Majolis ul-nafois" D) "Nasoyim ul-muhabbat"

24. O'zi yashab turgan kunlarni ortiga quyosh berkingan bulutga , davlatni suv yuzasidagi pufakchaga oxshatgan shoir kim?  
A) Muqumiyy B) Furqat C) Zavqiy D) Turdi
25. "Zulmat ichra nur " qissasida qaysi qahramon "xushchaqchaq, gapdon yigit bo'lib , tor va tanburni yaxshi chalar, o'z suhbat bilan majlisga jon kirgizar edi", deb ta'riflangan?  
A) Muhmmad Ali (Alisherni kichik tog'asi)  
B) G'iyosiddin (Alisherning otasi)  
C) Mirsayid(Alisherning katta tog'asi )  
D) Sharafiddin Ali Yazdiy (Alisherning maktabdoshi)
26. Qaysi javobda bir xil janrga xos bo'lgan asarlar nomi keltirilgan.  
A) "Buxoroning jin ko'chalari", "Kumush tola", "Karvon qo'ng'irog'i"  
B) "Hamshaharlarim", "Quyosh belanchagi", "Daryolar tutashgan joyda"  
C) "Mardlik cho'qqisi", "Samandar", "Dunyo bolalari"  
D) "Opa singillar", "Amu", "Davri mening taqdirimda"
27. "Abulfayzxon" fojiasida qaysi obraz **mard, to'g'ri so'z e'tiqodidan qaytmaydigan kishi** sifatida tasvirlangan?  
A) Nodirshoh B) Ibrohim otalig'  
C) Farhod otalig' D) Hakimbiy otalig'
28. Hayndrix **Hayne** faoliyati bilan bog'liq ma'lumotni aniqlang.  
A) Badiiy adabiyotda birinchi bo'lib jonivorlarni badiiy asarning bosh qahramoni qilib oldi.  
B) Angliyaga qilgan sayohatidan keyin "Tubanlik kishilari" degan ocherklar to'plamini nashr ettirdi.  
C) Huquqshunoslik fakultetini bitirib, diplom olgan bo'lsa-da, bu sohada biror kun ishlamagan.  
D) Ahamiyati jihatidan Nobel mukofotiga teng bo'lgan Hans Kristian Andersen mukofotiga sazovor bo'lgan.
29. "Ulug' kun" **dramasi**, "Ulug' yo'l" **romani hamda "Ulug' saltanat"** trilogiyasining mualliflari qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?  
A) Andreyev, Yoqubov, Mirmuhsin  
B) Shekspir, Oybek, Mirmuhsin  
C) H.Hayne , Yoqubov, Shukrullo  
D) V.Kirshon, Oybek, M.Ali
30. **Dantening "Ilohiy komediya" asari tarjimoniga tegishli javob variantini belgilang?**  
A) She'rlarining birida 12 raqamidan mohirona foydalangan  
B) Insonni halokat sari boshlovchi muhabbatga isyon tarzida asar bitgan  
C) Ilk she'ri "Qushcha " nomi bilan nashr etilgan  
D) "Shams ul - urfon" maktabida boshlang'ich ta'limni olgan

@Kimyouz7

Qashqadaryo viloyati. Qarshi shahar.  
2019-yil DTM imtihon bazasidan to'plandi.